

*TTEYI “O‘zbek va xorijiy tillar” kafedrası assistenti,
Muminova Maftuna Alijonovna*

INGLIZ AYOL YOZUVCHISI KETRIN MENSFILD IJODINING O‘ZIGA HOSLIGI

Annotatsiya. Ushbu maqola XX asrning qobiliyatli Ingliz yozuvchilaridan biri Ketrin Mansfild ijodining o‘ziga hosligi, hamda uning qisqa hikoya janrida haqiqiy burilish yasanligi haqidadir. Uning hikoyalarida Ingliz iboralari yoritilishi bilan bir qatorda insoniyat ongining nozikligi va rang barangligi ustalik va badiiylik bilan chuqur ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: syujet, adabiy va badiiy ishlar, psixologik hikoyalar, hikoya janri, namunalar.

Аннотация. В данной статье речь идет об уникальности творчества Кэтрин Мэнсфилд, одной из самых талантливых английских писательниц XX века, а также о том, что она совершила настоящий прорыв в жанре коротких рассказов. В его рассказах, наряду с разъяснением английских фраз, с мастерством и артистизмом глубоко раскрывается тонкость и разнообразие человеческого разума.

Ключевые слова: сюжет, литературно-художественные произведения, психологические рассказы, жанр рассказа, примеры.

Annotation. This article is about the uniqueness of the work of Catherine Mansfield, one of the most talented English writers of the twentieth century, as well as the fact that she made a real breakthrough in the genre of short stories. In his stories, along with the elucidation of English phrases, the subtlety and variety of the human mind is deeply revealed with mastery and artistry.

Keywords: plot, literary and artistic works, psychological stories, story genre, examples.

Ketrin Mansfild XX asrning qobiliyatli Ingliz yozuvchilaridan biri. Uning hikoyalari Angliyada juda mashhur. U qisqa hikoya janrida haqiqiy burilish yasadi. Uni bilganlarga u ijodi bilan shunday ta'sir ko'rsatadiki, masalan Kler Tomalin o'zining kitobida "Ketrin Mensfild: sirli hayot" shunday yozadi: "Uni tanqidiy esseylarda biografiyalarda, memuarlarda, adabiy va badiiy ishlarda tilga olishardi. Uni turli rakurslarda qo'yib yozishardi: tragik figura sifatida, o'tkir qalam sohibasi sifatida, haqiqiy novator sifatida, oz zamonasining ko'zga ko'ringan ayoli sifatida ko'rishgan." Uning hikoyalarida Ingliz iboralari yoritilishi bilan bir qatorda insoniyat ongining nozik rang barangligi, xayron qolarli darajadagi ustalik va badiiylik bilan chuqur ochib bergan. Mensfild 1903 va 1906 yillarda Yevropa qit'asiga sayohat qilganida asosan Belgium va Germaniyada turadi. U Angliyadagi maktabni tamomlagandan so'ng, 1906 yili Yangi Zelandiyadagi uyiga qaytadi va faqatgina qisqa hikoyalar yozishni boshlaydi. Uning ko'plab ishlari "native companion"da nashr etiladi. Shu vaqtlarda u o'ziga Mensfild taxallusini oldi. U Yangi Zelandiyaning hayot tarzidan tez charchaydi va yana Londonga qaytadi.[6. 35]

1911 yilda uning birinchi hikoyalar to'plami "In a German pension" nashr etilgandan so'ng uning adabiyotdagi mavqei yuqori darajaga ko'tariladi va shu yilning o'zida Ketrin Mensfild Londonga qaytgandan so'ng ijtimoiy jurnal redaktori Midlton Murri bilan tanishadi va uning ikkita hikoyasi redaksiyaga jo'natiladi. 1914 yildan ular birga yashashadi va uning bir qator asarlari adabiy jurnallarda chop etiladi. Murry sababli Ketrin Mensfild o'sha davrning eng mashhur yozuvchilari bilan tanishishga muvassar bo'ladi. Jumladan Devid Herbert, Lawrence, Virginia Woolf, Lytton Strchey, Bertrand Russel va boshqalar. Mensfildning Bavariyada o'tkazgan vaqti uning adabiyotdagi istiqboliga ahamiyatli tasirini o'tkazdi. Birinchi jahon urushi yozuvchiga qattiq ta'sir qiladi. 1915 yilda mashhur asari "Muqaddima"ni chop ettiradi. Mensfild ayniqsa Anton Chexov ishlari bilan tanishdi. Ketrin Mensfild o'zining butun umri davomida rus adabiyotida, aynan A.P.Chexov ijodiga qiziqqan, A.P.Chexov asarlarini rus adabiyotining yorqin namunasi deb xisoblagan. A.P.Chexov va boshqa rus yozuvchilaridan o'z ijodi uchun yorqin namunalar topgan bunga asos bo'lib, A.P.Chexovning xatlari va kundaliklarini olgan.

Bu holatlar uning badiiy adabiyotdagi his tuyg'ulariga ta'sir o'tkazgan. Uning hikoyalarda Chexov ijod yonalishini ham uchratishimiz mumkun. 1919 yil u Katenyanskiy bilan birga buyuk A.P.Chexov asarlari va kundaliklarini Ingliz tiliga tarjima qiladi.[3.5]

1915 yilda Yangi Zelandiyaning Fransiyadagi askari Mensfildning kichkina ukasining o'limi uning hayoti va ishini o'zgartirib yuboradi. U o'zining bolalik hotiralarini sog'inadi va ushbu sheri orqali orzularini qisqacha yozadi.

“By the remembered stream my brother stands

Waiting for me with berries in his hands ...

These are my body. Sister take and eat.”

1916 yil Mensfild ijodi uchun samarali bo'ladi. “The new age”da ko'plab hikoyalari jumladan “Mr Reginald peacocks day” va “A Dill Pickle” va boshqa hikoyalari nashr etiladi.

Har bir kitobxon psixologik hikoyalar ustasi Ketrin Mensfild hikoyalarining ko'p qirraliligini ko'radi. Uning hikoyalaridagi syujetlarning bir-biriga qo'shilish jihatlari, uning yozgan asarlaridan ilhomlanib Stivinson, Gaggard, Konan Doillarning muqaddas kishisiga aylangan.

Midlton Murri Mensfild haqidagi hotiralarida, uning ingliz adabiyotiga o'hshamagan prozasini XIX asr ingliz poeziyasida ko'rishi mumkunligini yozadi. Midlton Murrining takidlashicha ingliz klassik prozasini chetda qoldirib, Mensfild ingliz klassikasidan farqli ravishda yangi yo'nalishda ijod qildi. U o'zining ijodida chuqur lirizm bilan inson ichki his tuyg'ularini ochib berdi. “Yarim tun hikoyasining chuqur poetik kechinmalaridan ruhlanib, “Qog'irchoqlar uyi”, “Kichik qizim”, “Quyosh va Oy” hikoyalarda o'quvchiga farzand his tuyg'usi va ichki dunyosini asta sekinlik bilan mohirona yetkazadi. Mensfildning “Quyosh va oy” hikoyasi birinchi marta 1920 yil 1- oktyabrda Athenaeum da nashr etilgan, keyinchalik “Bliss and other stories” nomli kitobida bosib chiqarilgan. Mensfild ushbu hikoyasi orqali bolalar va kattalar o'rtasidagi tafovut va farqni ko'rsatib bergan va juda ko'p simbolik detallardan foydalangan. Masalan “the ice pudding” (muz bo'lagi) “quyosh va oy” hikoyasida bolalarning hayotdagi hom hayollarini tasvirlagan.

Hayollar haqiqatdan yiroqligini, muz kabi erib yo'q bo'lib ketishini manashu detallar orqali chiroyli tasvirlagan.

Mensfild ushbu hikoyalar orqali oiladagi muammolarni va oila a'zolarining bir birlariga bo'lgan munosabatlarini bilinar bilinmas chiziqlar orqali muhokamaga qo'ygan. Bolalar va yoshi kattalar o'rtasidagi ko'z ilg'amas muammolarni ochib bergan va ularni taxlil qilgan. Masalan uning "Olti pensi" hikoyasida ota va bola o'rtasidagi munosabatlar ko'rsatilgan bo'lsa, Mensfild ijodining boshida Boris Petrovskiy nomidagi rus tilidan o'girilgan she'riy to'plam bilan ijodini boshlagan.

Ketrin Mensfild va Boris Petrovskiy – izlanishlarimiz natijasida biz shuni bildikki 1912 va 1913 yillarda Londonning Ritm jurnalida Ketrin Mensfild Boris Petrovskiy tahallusi bilan o'z sherlarini nashr ettirgan. Uning dastlabki ikkita she'ri "Erta bahor"(Очень ранняя весна) "Uyg'onayotgan daryo" (Просыпающаяся река) she'rlari "Boris Petrovskiy tomonidan tarjima qilindi" deb imzolangan. Ular unchalik badiiy ahamiyatga ega emas edi. Biroq ularda Rus tabiatiga mos bo'lgan o'rmon, qor, ko'llar o'z aksini topgan. Qolgan to'rtta she'ri ("Maysa bag'ridagi bola", "Hotira", "O'tmishdagi bola") Boris Petrovskiy tahallusi ostida chop etilgan. Ketrin Mensfildning bunday yo'l tutishining asosiy sabablaridan biri 1912 yilda Angliya adabiyoti tarixida Rus adabiyoti moda edi. Uning rus adabiyotiga qiziqishi Maria Bashkirovaning kundaligini oqishdan boshlangandi.

Mensfild XX asr boshlaridagi inglizlarning serqirra hayotini ko'rsatish bilan o'zini tanitish maqsadi yo'q edi. U insonlarni ichki dunyosi bilan birga edi. Uning hikoyalari insonlar psixologiyasiga yaqin etyutitlarda yozilgan. Shunday hikoyalaridan birini "Psixologiya" deb nomladi. Ushbu hikoyasi orqali inson psixologiyasiga turmushdagi oddiy narsalar ham o'z tasirini o'tkazishini yoritib bergan. Hikoyaning asosiy qahramonlari ikki yozuvchi ayol va erkak. Yozuvchi ayol yozuvchini birga choy ichishga taklif qiladi. Ularning suhbatlari asosan adabiyot va adabiy janrlar haqida edi. Ular asosan psixologik romanlardagi vaziyatlar va ulardagi sohtaliklarni muhokama qilishadi. Hikoya ohirida ayol yozuvchi do'sti bilan bo'lgan suhbatini qog'ozga tushiradi. Mensfildning ushbu hikoyasidagi mavzuning asosiy g'oyasi do'stlik, adabiy janrlar, yo'nalishlar, psixologik romanlardir. [10.2-3]

Mensfield har bir hikoyasini yozishdan oldin, o'sha qahramonning his tuyg'ularini o'zida singdirgan, ularning o'rniga o'zini qo'ya olgan.

“When I described duck, I swear, I am also a white duck with round eyes swimming in the yellow foam bubbling pool, occasionally having a quick glimpse of my inverted reflection in water.” Masalan “Begona” (Stranger) hikoyasini yozayotgan vaqtda u o'zini agar portda u kimnidir uzoq vaqt kutib qolgandek his qiladi. Mensfieldning hikoyalarida asosiysi uning hikoyalarining tor ma'noda emas aksincha qahramonlar holatini yurakni eritadigan vaziyatlarda ochib bergan.

Bundan tashqari Mensfieldning “Qora shapka” nomli hikoyasidagi qahramon qiz sevimli yorining boshidagi eski qora shlyapasiga qarab, uning sevgilisiga nisbatan munosabati o'zgarishi va unga butun umrini bog'lash fikridaligini yoritib bergan.

Mensfield psihologik hikoyalarida tashqi hodisalar emas, balki insonning ichki dunyosi va xissiy xolatlarini tasvirlaydi. Uning nozik hissiyotlar bilan yozgan hikoyalari, o'sha davrning ingliz va fransuz yozuvchi modernchilar doirasiga kirib bordi. Ular tashqi hayotni va moddiy hayotni tanqid qilgan holda, insoniy his tuyg'ularni yoritib beradilar. Mensfieldning ijodiy yo'nalishi qaysidir ma'noda Virjiniya Vulfning insonlarning ichki dunyosini chuqur tadqiqotiga va Devid Gerbrt Louns romanlariga o'hshaydi. Mensfieldning ijodida, xayot tendensiyalarining qarama qarshiliklarini uchratishimiz mumkun. Uning hikoyalari avvalo gumanizimi quyi tabaqadagi insonlarni ishonchi bilan farq qiladi. Uning borliqni real gumanistik xolatda tasavvur qilishi hayotni go'zal holda tasvirlashiga yordam beradi. Mensfieldning dekodant guruhiga yaqinlashishi, ijodiga sezilarli ta'sir o'tkazmadi, ijodining realligi va jozibasini yo'qotmadi.

The Dolls House “qo'g'irchoqlar uychasi” nomli hikoyasiga nazar tashlar ekanmiz yozuvchi jamiyatdagi bolalar, ular o'rtasidagi tafovut, tabaqalanish, nasl nasabning yuqori yoki pastligiga etiborni qaratgan. Jamiyatdagi sinflarning bolalar ongiga ta'siri, ularning ichki dunyolari, go'zallik va nafislik, mohirlik bilan ko'rsatilgan. Eng muhimi jamiyatning bolalarga ta'sirini va bolalarning ichki dunyosini, aql farosatini go'zal va nafis chiziqlarda yorqin namoyon etgan. Hikoyaning asosiy qahramonlari Izabel, Keziya va Lotti ismli uchta qizlardir.

Adibaning yozuv uslubi ham oddiy ham qiyin qirralarga egadir. Bolalar to'g'risidagi hikoyalarida gaplardagi konstruksiyalar oddiy bolishi bilan birga sodda tuzilgan. Ya'ni bola tilida yozilgan. Hattoki bazi bolalarcha hatolar ham ataylab qilinganini uchratishimiz mumkun. Hamma hikoyalarida – aftobiografik harakterga ega bo'lgan hikoyalarida ham, (“Late at night”, “Lady’s Maid”) obrazlar ichki his tuyg'ulari orqali o'zlarini namoyon qiladigan hikoyalarida ham, (“Life of Ma Parker”, “ Marriaga a la Mode”, “The Fly”, “Picture” va boshqalar) – dialog , og'zaki nutq, hayoliy obraz bilan suhbatlar hikoyalarida o'z aksini topgan.

Reference:

1. Hanson C. Short Stories and Short Fictions. 1880–1980. L., 1985.
2. Katherine Mansfield. Selected stories.- Moscow. 1959. P.182
3. Katherine Mansfield, from a letter to virginia woolf, AUGUST 1917
4. Lazzarus A. and Smith H. Glossary of literature and composition. NewYork, 1973. P. 274 – 275.
5. Letter to Blaite on Oct.11.1917
6. M.Bakoyeva, E.Muratova, M.Ochilova .English literature.- T. 2006.P.263
7. Mansfield K. Journal of Katherine Mansfield, ed. by J. M. Murry. The Albatros, Hamburg, Paris, Bologna, 1933.
8. Mansfield K. Letters to J. M. Murry, ed. by J. M. Murry. L., 1951.
9. Ikromkhonova Firuza Ikromovna Indoneziya \\International journal of discoveries and innovations in applied sciences\\ Genre and composition in Uzbek and English historical works \\Volume 1 Issue 4, 2021 P.158-162
- 10.Muminova Maftuna Alijonovna, Ikromkhonova Firuza Ikromovna \\Rossiya Journal of Innovations in Social Sciences\\ Ketrin Mensfilding Estetik qarashlari "Volume: 01 Issue: 05 | 2021 ISSN: 2181-2594"
- 11.."Ikromkhonova Firuza Ikromovna,Yusupova Sanobar Tursunbayevna, Nishonova Dilfuza Homidovna, Kodirova Gavkhar Alisher qizi, Djuraeva Nilufar Bakhtiyarovna\\ " USA Psychology and education scopus\\ The issue of historical works in american literature\\ (2021) 58(1):

12.." Muminova Maftuna Alijonovna Yusupalieva Shakhnoza Khakimjanovna
,Sattorova Saodat Tojimatovna \\ "India Novateur publications JournalNX-
A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal\\Syntactic functions and patterns of
combinability of adverbs ISSN No: 2581 - 4230 VOLUME 7, ISSUE 1, Jan. -
2021 P. 176-178